

## O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Sheraliev Xayitali Ro'zalievich*<sup>1</sup>

**Annotasiya:** Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarining dolzarbligi uni mamlakat iqtisodiy xavfsizligidagi va jamoat xavfsizligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati hamda mamlakatimizda bu borada olib borilgan ijtimoiy iqtisodiy islohatlarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiyot, oziq-ovqat xavfsizligi, qishloq xo'jaligi, ekin maydoni, aholi soni, aholi turmush darajasi, bozor, iste'mol, ehtiyoj, ishlab chiqarish, xo'jalik.

### Kirish

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir davlat iqtisodiy xavfsizligining ajralmas qismi bo'lib, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirishga xizmat qiluvchi ososiy omillardan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy rivojlanishning bir qismi sifatida mamlakatimizda zamonaviy talablarga to'liq javob beradigan, innovasion texnologiyalarga asoslangan holda ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab juda yuqori bo'lib, bu borada keyingi besh yillikda olib borilgan samarali islohatlar evaziga yildan-yilga qishloq xo'jaligida oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ularni sanoatda qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi xo'jalik sub'ektlari va korxonalarida modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash jaraeni izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Korxonalar tomonidan oziq-ovqat mahsulotlari turlarini ishlab chiqarishning ko'payishi evaziga hozirda respublikamiz aholisi ehtiyojlari uchun etarli darajada va sifatli mahsulotlari etkazib berish miqdoran ko'payib, sif Oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirish va ishlab chiqarishda qishloq xo'jaligi alohida o'ringa ega hisoblanadi. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyev Oliy Majlisga murojaatnomasida—qishloq xo'jaligi sohasini boshqarish tizimini isloh qilish, er va suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi ilg'or texnologiyalarni joriy etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash eng muhim vazifamizdir - deb alohida ko'rsati bo'tganligi ham bejiz emas.

Aholi turmush farovonligini yanada oshirish, aholini etarli darajada va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalalari oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosini tashkil etadi. Shu boisdan, mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va aholi ehtiyejiga etarli darajada, sifatli holda etkazib berish masalalarining nazariy asoslarini va ustuvor yo'nalishlarini tahlil etish davr talabi hisoblanadi.

### Adabiyotlar:

Mavzuga oid adabiylarni tahlil etishda aholini etarli darajada va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalarini dunyoning bir qancha olimlari, xalqaro tashkilotlari tomonidan ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, H.P.Abulqosimov va T.S.Rasulovlar (2017) tomonidan tayirlangan monografiyada oziq-ovqat xavfsizligining nazariy jihatlari, ularning o'zgarish tendentsiyalari, ta'sir ko'rsatuvchi omillar va bu borada olib borilishi kerak bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yoritilgan.

D.N.Saidova va boshqalar (2016)—agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi kitobida mamlakatimiz agrar sohasidagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etishning xalqaro tajribalaridan foydalanish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini etishtirishni ko'paytirish va aholi ehtiyejini sifatli mahsulotlar bilan etarli darajada ta'minlash baen etilgan.

Abdug'aniev O.A. (2018) o'z maqolasida oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashning mintaqaviy xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan va Gordienko D.V. (2009) oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi Universiteti Magistratura Tinglovchisi Podpolkovnik



mamlakat iqtisodiy xavfsizligining bir qismi sifatida, davlatda oziq-ovqat xavfsizligi asoslarini tadqiq qilib va uning ilmiy-amaliy jihatlarini tahlil qilgan.

Kravchenko S.A. (2014) mamlakat milliy xavfsizligi va unga ta'sir qiluvchi omillar tahlil qilingan hamda ushbu omillar ichida biologic omillarning o'rni atroflicha ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalariga asosan mamlakatda olib borilayotgan biologik siësatning ahamiyati ëritilib, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan tavsiyalar berilgan.

#### **Tahlil va natijalar:**

O'zbekistonda mustaqillikka erishgan vaqtdan boshlab, agrar islohatlarga alohida e'tibor qaratildi, aynan agrar islohatlar asosida qishloq xo'jaligi ekinlari tarkibini qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish borasida uzoq vaqtga mo'ljallangan strategik reja va dasturlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash chora-tadbirlari ishlab chiqildi.

Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda avvalo quyidagi shartlarni bajarish kerak bo'ladi:

- davlat va mintaqa miqiyosida muvozanatlashgan xom-ashë va oziq-ovqat resurslarini shakllantirish, saqlash va etkazib berish maqsadida agrosanoat ishlab chiqarishini tashkil etish, shuningdek, agrosanoat majmualarining eksport salohiyatini barqaror rivojlantirish;
- aholi turmush darajasi yanada yaxshilash va sifati iste'mol mahsulotlari bilan ta'minlash, tibbië me'ërlari bo'yicha etarli darajadagi oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilishga mos keladigan daromadlar olish uchun sharoitlar yaratish;
- kerakli bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va xom-ashëni import qilish uchun zarur bo'lgan valyuta resur.

Ushbu shartlarning bajarilishi oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashning birlamchi vazifalari hisoblanadi, har bir mamlakat shu shartlar asosida o'ziga xos yo'nalishlarni aniqlab oladi va kerakli chora tadbirlarni amalga oshiradi. Mamlakatimizda oziq-ovqat havfsizligi borasidagi keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda, hukumat tomonidan amaliëtgã tadbiriq etilayotgan farmonlar, qarorlar va davlat dasturlarida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini aks etishi ahamiyatlidir.

Mamlakatimizda 2022 yil holatiga oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashga aloqador 4 ta qonun, 138 ta qaror (21 ta O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, 80 ta O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, 27 ta O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari hamda 10 ta O'zbekiston Respublikasi vazirlik va qo'mitalar qarorlari) amaliëtgã joriy etilgan va lex.uz O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasida joylashtirilgan.

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 30 avgustdagi oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 29 apreldagi—aholini ayrim turdagi oziqovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga doir choralar to'g'risidagi hamda O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 25 oktyabrdagi —O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksiga aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha kiritish to'g'risidagi qonunlari aynan oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashga xizmat qiluvchi qonun. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 dekabrda NöPQ-58 sonli oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida islohotlarni tadqiq qilish, strategik rejalashtirish hamda boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020 yil 16-dekabrda NöPQ-4922 sonli — O'zbekiston Respublikasining BMT oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, BMT qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida, 2020 yil 9-sentyabrdagi NöPQ-4821 sonli — Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashga doir chora-tadbirlar to'g'risidagi qarorlari ham mamlakatimiz aholisining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili sifatida oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlash zarurligini asoslab beradi. Oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashda, oziq ovqat mahsulotlarining iste'mol imkoniyatlarini aniqlash uchun ularni uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bular:

- oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining jismoniy imkoniyatlari;
- oziq ovqat mahsulotlari iste'molining iqtisodiy imkoniyatlari;
- oziq ovqat mahsulotlari iste'molida ovqatlanish xavfsizligi.

Bu borada yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, ishlab chiqilgan dasturlar ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'molining jismoniy imkoniyatlari deyilganda mamlakatimizda mavjud oziq ovqat mahsulotlari qishloq



xo'jalik etishtirish, qayta ishlash, saqlash hamda aholiga etkazib berish imkoniyatlari tushuniladi. Ya'ni aholi ehtiëjini fiziologik me'yorlarga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari bilan qondirish bilan birga aholining turmush darajasi bilan bog'liq ravishda ularning sifatini ham ko'rib o'tilishi muhim hisoblanadi.

Oziq ovqat mahsulotlari miqdori va aholi soni o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud bo'lib, aholi soni ortgani sari oziq ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab ortib boradi. Mamlakatimizda aholi soni har yili o'tgan davrga nisbatan ortib bormoqda, 2021 yilning 1-yanvar holatiga 34,5 mln. kishi tashkil qiladi (1-jadval).

### 1-jadval

#### Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

Kўrsatkichlar	Йиллар				
	2017	2018	2019	2020	2021
Аҳоли сони	32120,5	32656,7	33255,5	33905,2	34558,9
Қишлоқ хўжалиги экинлари майдони минг гектар	3474,5	3396,0	3309,4	3396,1	3260,7
Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти, млрд. сўм	148199,3	187425,6	216283,1	250250,6	302524,9
Саноатда Озиқ овқат маҳсулотлари ишлаб чиқариш млрд. сўм	24952,3	26001,2	37033,0	44014,0	55327,3
Нарх индекси (озиқ овқат маҳсулотлари)	107,8	120,1	116,9	117,2	108,3

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizdagi aholi soni 2018 yilda 536,2 ming kishiga, 2019 yilda 598,8 ming kishiga, 2020 yilda 649,7 ming kishiga va 2021 yilda 653,7 ming kishiga ko'payib borgan. Aholi sonini o'zgarishini yillar kesimida chuqurroq tahlil qilsak doimiy o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganligini ko'ramiz. Aholiga asosiy oziq ovqat mahsulotlari etkazib beruvchi soha qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ekin maydonlari esa aksincha kamayish tendentsiyasiga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ekin maydonlari 2018 yilda - 78,5 ming gektarga, 2019 yilda - 86,6 ming gektarga kamaygan 2020 yilda esa 86,7 ming gektar ortgan lekin 2021 yilga kelib - 135,4 ming gektarga kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Aholi ehtiëjlari uchun asosiy oziq ovqat mahsulotlari etkazib beruvchi qishloq xo'jaligi erlarining kamayishi oziq ovqat mahsulotlari taqchilligini ëki oziq ovqat inqirozini kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ekin maydonlari 2017-2021 yillar davomida qisqarishiga qaramasdan ushbu yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish salmog'i ortib borgan 2018 yilda 2017 yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 39226,3 mlrd so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilgan. 2019 yilda 2018 yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 28857,5 mlrd so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilgan. 2020 yilda 2019 yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 33967,5 mlrd so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilgan va 2021 yilda 2020 yilga nisbatan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 52274,3 mlrd so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rishimiz mumkin.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2018 yilda oziq-ovqat mahsulotlari narx indeksi 2017 yilga nisbatan 20,1 foizga ortgan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 79,1 foizga ortgan, 2019 yilda oziqovqat mahsulotlari narx indeksi 2018 yilga nisbatan 16,9 foizga ortgan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 86,6 foizga ortgan, 2020 yilda oziq-ovqat mahsulotlari narx indeksi 2019 yilga nisbatan 17,2 foizga ortgan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 86,4 foizga ortgan va 2021 yilda oziq-ovqat mahsulotlari narx indeksi 2020 yilga nisbatan 8,3 foizga ortgan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish esa 82,7 foizga ortgan. Jadval tahliliga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish summasining ortishida narx indeksi ta'siri juda kam. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari mahsulotlarini ishlab chiqarish miqdori ekin maydonlarining kamayishi mos holda kamayganda jadvaldagi ma'lumotlar kamayishi kerak edi, lekin amaliëtda unday bo'lmasligi O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi. Ekin maydonining kamayishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xajmini ortishi o'rtasidagi bog'liqlikni turlicha izohlash mumkin:



- narx o'sishi (inflyasiya) evaziga, mahsulotlarning narxlari ortishi hisobiga ishlab chiqarish miqdori kamayishiga qaramasdan ularning umumiy summasi ortishi kuzatiladi.

- hosildorlikning ortishi hisobiga, bunda ekin maydoni kamayishiga qaramasdan yangi zamonaviy texnika, texnologiyalarni qo'llanishi evaziga 1ga maydonga to'g'ri keladigan hosildorlik ortadi va umumiy mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortadi.

- ekin turlari tarkibini o'zgarishi natijasida, aholiga kerakli va talab yuqori bo'lgan oziq ovqat mahsulotlar etishtiriladi, pirovard mahsulotlar summasi ortib boradi. Manbalarga ko'ra 2007 yilda hukumat "Kanadaning Shimoliy strategiyasi" nomli beshyillik dastur qabul qilib amalga oshirgan. Dasturga ko'ra uzoqda joylashgan aholi oziq-ovqat buyurtmalari uchun davlat subsidiyalari berilgan.

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'i xam muhim ahamiyat kasb etadi.


Har qanday davlatda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham yildan yilga oziq ovqat mahsulotlari narxi ortib bormoqda èki boshqacha aytadigan bo'lsak oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid kuchayib bormoqda, bu tahdidlarni yuzaga keltiruvchi omillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratishimiz mumkin. Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlashda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'i xam muhim ahamiyat kasb etadi.

- ichki omillar;

- tashqi omillar.

**Oziq-ovqat xavfsizligi ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibini 1-rasmda ko'rishimiz mumkin.**





### 1-рasm. Озиқ-овқат хавфсизлиги та'сир кўрсатувчи асосий омиллар

Озиқ-овқат хавфсизлиги та'минlashга та'сир қилувчи асосий омиллардан мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланish darajasi hisoblanadi, chunki мамлакат aholisining oziq ovqat mahsulotlari bilan etarli darajada ta'minlanganligi va xavfsizlik darajasi rivojlangan мамлакатlarda yuqori va aksincha rivojlanmagan мамлакатlarda past darajada bo'ladi. Мамлакатнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланish darajasiga qarab unda oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlangan yoki ta'minlanmaganligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Мамлакатimizda yildan yilga ижтимоий-иқтисодий ривожланish kuzatilmoqda va mos holda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash darajasi ham ortib bormoqda.

Озиқ-овқат хавфсизлиги та'сир қилувчи ichki omillar bilan birgalikda tashqi omillarning xam ta'siri sezilarli darajada yuqori hisoblanadi. Jaxon iqtisodiyotidagi turli ижтимоий-иқтисодий inqirozlar, xususan COVID-19 pandemiyasining tarqalishi, hozirgi kunda Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush oziq-ovqat xavfsizligiga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Rossiya va Ukraina o'rtasidagi urush natijasida jaxon bozoriga asosiy don etkazib beruvchi ushbu davlatlarda etishtirilgan don mahsulotlari iste'molchilarga etib bormay qoldi. Chunki rivojlangan davlatlar Rossiyaga nisbatan turli sanktsiyalarning joriy etishlari va Ukrainada etishtirilgan don mahsulotlarini portlarda Rossiya tomonidan ushlab turilishi bozordagi talabning ortishiga va taklifni qisqarishiga sabab bo'lmoqda hamda mos ravishda oziq ovqat mahsulotlari narxлари ortib bormoqda.



Oziq-ovqat xavfsizligi tashqi omillar ta'siri kuchayib boraётganligi haqida mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziёev —Ma'lumki, dunёda oziq-ovqat tanqisligi kuchayib bormoqda. Eksportga qo'yilaётgan cheklovlar va transport-logistikadagi uzilishlar muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Tahlillarga ko'ra, joriy yilda dunyoda oziq-ovqat mahsulotlari narxi kamida 20 foizga o'sishi prognoz qilinmoqdal deb ta'kidladi. Respublikamizda bu borada amalga oshirilaётgan ishlar va olib borilaётgan islohatlar aholini turmush farovonligini yaxshilash va ularning birlamchi ehtiёjlarni etarli darajada ta'minlash hukumatning asosiy vazifalaridan biri ekanligini ko'rsatib turibdi. Jumladan mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiётni belgilab beruvchi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiёт strategiyasi to'g'risidagi PF-60 son Farmoni 1-ilovasining 22-maqsadining bir qismi sifatida oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish nazarda tutilgan va bunda oziqovqat xom ashё bazasini kengaytirish va organik mahsulotlar hajmini bosqichma-bosqich oshirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish ko'rsatilgan. Jumladan dasturga ko'ra 2022 yilda Davlat investisiya dasturi doirasida umumiy qiymati 440 mln AQSh dollari bo'lgan 50 ta yirik loyihani amalga oshirishiriladi hamda 2026 yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo'yicha 32 foiz, go'sht — 25 foiz, meva-sabzavot — 28 foizga etkazilishi nazarda tutilgan (murojaatnoma, 2022). Mamlakatimiz aholi soni o'sib borishiga mos holda ularni oziq ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash choralari ko'rilmogda.

### **Xulosa va takliflar**

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi uchta muhim jabhani, ya'ni agrosanoat majmuasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni tartibga solish va rag'batlantirish, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga erishishini va iste'molini ta'minlash va bu boradagi imkoniyatlarini oshirishhamda oziq-ovqat xavfsizligini boshqarishni tashkil etish tizimini takomillashtirib borish bo'yicha dastak va choratadbirlarni o'z ichiga oladi. Bizningcha, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash mexanizmi agrosanoat majmuasida oziq-ovqat ishlab chiqarishni tartibga solish va rag'batlantirish sohasida quyidagi dastak va choratadbirlarni o'z ichiga oladi:

- oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qonuniy, huquqiy-me'yoriy asosini vujudga keltirish va takomillashtirib borish;

- byudjet-soliq vositalari orqali oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishni rag'batlantirish. Bunda soliq imtiyozlari, dotasiya va subventsiyalarberish nazarda tutiladi;

- pul-kredit siyosati dastaklari vositasida oziq-ovqat ishlab ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarning eskirganligi qishloq xo'jaligida oziq ovqat mahsulotlari etishtirish hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatsa, sanoatda ularni qayta ishlash darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar eskirgan bo'lsa, qishloq xo'jaligida xam qayta ishlash sanoatida ham unumdorlik va sifat darajasi past bo'ladi. Ishlab chiqarish asosiy vositalarni modernizasiyalash, bu sohaga investisiyalarni jalb qilish hamda innovasiyalarni joriy qilish orqali mazkur muammolarni hal qilish imkoniga ega bo'lamiz. Ekin maydonlari va yaylovlarni qisqarib borishi, oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi kamayishiga olib keladi bu masalada echim sifatida hosildorlikni oshirish uchun innovasiyalardan samarali foydalanish hamda iqtisodiy xarajatlarni ko'paytirishga ahamiyat berish kerak bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 29 dekabr.
2. Abzalbek M.S. Mirovoy opit obespecheniya prodovolstvennoy bezopasnosti i ego ispolzovanie v Kazaxstane. // Moskovskiy ekonomicheskij jurnal, 2017, №1.
3. Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yo'nalishlari. Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya", 2019.
4. Krilatix E.N., Mazlova V.Z., Mejonova N.V. Nasionalnaya ekonomika: obespechenie prodovolstvennoy bezopasnosti v usloviyax integrasii. Monografiya. - M.: NIS "INFRA-M", 2016.
5. Birlashgan Millatlar tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO): rasmiy veb-sayt. - Kirish rejimi: <http://www.fao.org> (kirish sanasi: 28.10. 2018).



6. Stokov S. N. ichki oziq-ovqat ta'minotini ta'minlash mexanizmlari Kanada xavfsizligi. // Nikon o'qishlari, 2014, no 19. 331-332-sahifalar.
7. Tereshkina A. V. oziq-ovqat ta'minoti bo'yicha xorijiy tajriba xavfsizlik. - Kirish rejimi. [http:// nauka-rastudent.ru/](http://nauka-rastudent.ru/) 27/3252
8. Uskova T. V. mintaqaning oziq-ovqat xavfsizligi.
9. Iqtisodiy xavfsizlik: darslik. universitet talabalari uchun qo'llanma, iqtisodiyot va menejment mutaxassisliklari bo'yicha talabalar. / [V. A. Bogomolov va boshqalar]; tahririda V. A. Bogomolov, 2-nashr., perrab. va qo'shimcha-M.: Birlik-Dana, 2009 yil. 10. Сельское хозяйство (мировой Рынок). / Jason & Partners Consulting // <http://www.tadviser.ru/index.php>.
11. O'zbekiston Respublikasi er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo'mitasi ma'lumotlari; O'zbekiston Respublikasi er resurslarining holati to'g'risida milliy hisobot. - T., 2020.
12. N.I.Saidaxmedova. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasi va ularni O'zbekistonda foydalanish yo'llari. – T., 2019 yil.
13. [https://en.wikipedia.org/wiki/World\\_Food\\_Summit#cite\\_note-1](https://en.wikipedia.org/wiki/World_Food_Summit#cite_note-1)
14. Fazilov F.M. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O'zbekiston oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: iqtisod fan. nom. dis. Avtoref.-T.: JIDU, 2018.

